

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10/S-son (4-jild)

**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/10 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

Норматов Бекзод Ақром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети,  
Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология  
фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги  
Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна –  
психология фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари  
университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари  
доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт  
бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология  
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон  
миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари  
доктори, профессор, Ўзбекистон миллий  
университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология  
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон  
халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар  
доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар  
доктори, доцент, Ўзбекистон миллий  
университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари”** электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Norbekov Ahmadjon Norbekovich*

XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY

HOLATI ..... 11-18

*Eliboyev Ozodjon Po'lat o'g'li*

BAQTRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI..... 19-23

*Нуритдинова Нодира Сирожовна*

XX-АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН

ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА)..... 24-28

*Чориев Шоҳрух Холтура ўғли*

ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ

СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА ..... 29-38

*Жумаева Шоира Бердияровна*

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА

МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ ..... 39-43

*Jo'rayev Muxriddin Xasanovich*

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI

GEOGRAFIYASI..... 44-51

*Муқимова Рисолат Рустамжон қизи*

ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР ..... 52-56

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич*

ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ

ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ ..... 57-69

*Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna*

MINAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI ..... 70-75

*Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich*

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI ..... 76-86

*Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович*

ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ

ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ ..... 87-92

*Исламтудинова Дина Файзрахмановна*

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН ..... 93-102

*Qobiljon Isaev*

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHINI IQTISODIY

BAHOLASH ..... 103-110

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI***Xaitov Elmurod Bekmurodovich*

O'ZBEKISTONDA "AHOLI HAYOT SIFATI"GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) ..... 111-116

*Расулов Зоҳиддин Усарович*

СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ХАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙЎНЛИГИ ..... 117-122

*Тавмурадов Жамшид Элмурадович*

АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС ..... 123-128

*Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li*

YUSUF QORABOG'IIY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROSI ..... 129-132

*Muxtorova To'tixon Solijonovna*

FALSAFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR VA AMALIYOTLAR ..... 133-137

*Akramov G'iyosiddin Najmiddinovich*

MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ..... 138-142

*Ahmedova Dilrabo*

DINIY BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOIY, MA'NAVIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIY POTENSIALI ..... 143-150

**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Abdunabiyev Sunnat Botirovich*

IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA BERILISHI ..... 151-159

*Seytnazarova Injayim*

ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI ..... 160-168

*Tukhtakhodjaeva Zulfya*

PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY ..... 169-174

*Abdusalamov Doniyor Togayali ogli*

REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES ..... 175-179

*Axmedov Anvar Botirovich*

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR ..... 180-184

*Aminov Farrukh Komiljon Ugli*

THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES ..... 185-193

*Sharipov Bobur Salimovich*

RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA ..... 194-201

*Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna*

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 202-205

*Samatov Farxod Muminovich*

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "TV" SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) ..... 206-210

*Kendjayeva Zemfira*

METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI..... 211-216

*Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «HID», «IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI ..... 217-221

*Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi*

ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI VA SULAMIYNING "TABAQOT US-SUFIYA" ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKLER ..... 222-226

*Шарапова Лола Станиславовна*

ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА..... 227-232

*Ҳакимова Мастура Файзиллаевна*

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЪНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) ..... 233-239

*Mo'soyeva Hayitgul O'roqovna*

"HEART" – "YURAK" SO'ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI ..... 240-245

*Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI ..... 246-250

*Багаутдинова Ильмира Салаватовна*

ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ..... 251-255

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich*

EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN'S PUBLIC CIVIL SERVICE ..... 256-268

*Алиев Асилбек Кадирович*

ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА ..... 269-275

*Hong Weixing*

INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA ..... 276-284

*Султанова Сабохат Алишеровна*

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ..... 285-290

*Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi*

O'ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI ..... 291-298

*Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*

ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ ..... 299-304

*Khalikov Khayot*

THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN'S YOUTH ..... 305-311



Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА.. 312-317

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Толипов Бахтиёр Хамитович

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ ..... 318-324

Собирова Гулибарно Зайнитдин қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ  
РУССКОГО ЯЗЫКА ..... 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA  
INNOVATION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR ..... 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDUCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI  
O'YINLARNING O'RNI ..... 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV  
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI ..... 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI ..... 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIY TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI  
HAQIDA ..... 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH METODLARI ..... 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI  
DASTURLARDAN FOYDALANISH ..... 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI  
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
IMKONIYATLARI ..... 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI ..... 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) ..... 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY  
TEKNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI ..... 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV  
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI ..... 393-399

*Nishonov Nodir Alimjanovich*

BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI

RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI ..... 400-404

*Xidirova Durdona Muxtorovna*

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIMADANIY

MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEKANIZMLARI ..... 405-408

**Received:** 10 December 2024  
**Accepted:** 15 December 2024  
**Published:** 25 December 2024

*Article / Original Paper*

## **MIRSADIQ TOJIYEV'S LEGACY (AS AN EXAMPLE OF HIS WORKS CREATED FOR DUST)**

**Meliboyeva Nodira Qakhramanjanovanna**

Independent doctoral student (PhD) of the Uzbek State Conservatory

**Abstract:** The article scientifically analyzes the musical heritage of Mirsodik Tojiyev, a prominent figure in Uzbek composers' creativity, in terms of the progressive and productive use of national melodies using modern techniques. It is based on a series of works created by Mirasodik Tojiyev for the dust, and is compared based on theoretical analysis.

**Keywords:** chang, style, makam, symphony, performance interpretation, sound, music, east, creativity, tradition, harmony.

## **MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA)**

**Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi mustaqil izlanuvchi doktoranti (PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston kompozitorlik ijodiyotining yorqin namoyandasi Mirsodiq Tojiyevning musiqiy merosi milliy ohanglarni zamonaviy texnikalardan progressiv ravishda unumli qo'llanishi kesimida ilmiy tahlillangan. Aynan Mirasodik Tojiyevning chang uchun yaratgan qator asarlari asosida nazariy tahlillar asosida qiyoslangan.

**Kalit so'zlar:** chang, uslub, maqom, simfoniya, shakl, ijro talqini, obraz, shtrixlar, musiqa, sharq, ijod, an'ana, garmoni.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N54>

O'zbekiston kompozitorlik maktabi qisqa davr ichida juda salmoqli rivoj topdi. Kompozitorlik ijodiyotida siyosiy jarayonlar, davr murakkabliklari, qarama-qarshiliklar bu sohaga aslo o'z ta'sirini o'tqaza olmadi. Ziddiyatli va muzokarali mavzular bilan to'la asarlar nafaqat tinglovchilarni, balki kompozitorlar ham ortiq qiziqtirmay qo'ydi. Bu esa zamon ruhiyatini aks ettiruvchi yangi asarlar, yangi ijod namunalariga ehtiyoj seza boshladi. Buning natijasida esa yangi asarlar, simfoniyalar, konsertlar, kamer musiqalari, opera va baletlar yaratildi. Kompozitorlik ijodi tubdan o'zgardi. Bir qator kompozitorlar mualliflik asarlari bilan umumjaxon musiqa ma'daniyati sari salmoqli yutuqlarga erishdi. Sekin asta kompozitorlik maktabi shakllana boshladi. Kompozitorlik ijodi nafaqat yangi asarlar yaratilishda xizmat qildi, balki har yo'nalishda – vokal, cholg'u musiqalarini, ayniqsa o'zbek milliy cholg'ulari taqdiriga juda katta tasir o'tkazdi.

Mana shunday zahmatkash, mehnatsevar ijodkor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1981), O'zbekiston bastakorlar uyushmasi raisi (1982-1987) Toshkent konservatoriyasi dotsenti (1971-1996) bo'libgina qolmay, u o'zbek musiqa san'atida milliylikni simfonik musiqa bilan yorita olgan hamda, maqom zamirida ijodkorlikni tadbqiq eta olgan yetuk kompozitor. 1944-yil 25 mart kuni Toshkent shaxrida tavallud topgan. U avval Toshkent Hamza nomidagi musiqa bilim yurtida, so'ngra Toshkent davlat konservatoriyasida tahsil olgan. Mirsodiq Tojiyev nafaqat iste'dod egasi, balki irodali, mehnatkash, musiqiy did va ko'plab boshqa mezonlarni qamrab olgan kompozitor.

Mirsodiq Toshkent Hamza nomidagi musiqa bilim yurtini musiqa tarixi -nazariyasi bo'limida va bastakorlik sirlarini esa kompozitor Albert Malaxov sinfida tahsil olgan. Yosh Mirsodiq o'zining tirishqoqligi, mehnatsevarligi va ilmga chanqoqligi bilan boshqa talabalardan farq qilar edi. U tinmay mehnat qilib, izlanib musiqa bastalashda ham boshqa tengdoshlaridan farq qilar edi. Uning musiqaga bo'lgan ulkan sevgisi tufayli Mirsodiq Toshkent davlat konservatoriyasida R.Vildanov va F.M. Yanov-Yanovskiy sinfida tahsil olib yurgan kezarida "Shoir sevgisi" va birinchi va ikkinchi simfoniylarini yaratadi. Bu asarlar yosh kompozitorga katta shuhrat olib keladi. Mirsodiq talabalik yillaridanoq (1964-1972) Toshkent Hamza bilim yurtida dars bera boshlaydi. U nafaqat ijod qilishni yaxshi ko'rgan, balki o'z bilim va malakasini keyingi avlodga qoldirishga uringan. Mirsodiq Tojiyev o'zining mehnatsevarligi va iqtidori bilan konservatoriya o'qituvchilari e'tirofiga sazovor bo'lib, ustozlarining taklifiga ko'ra hali konservatoriyaning tamomlamaganiga qaramay uni shu konservatoriya nazariya fanidan o'qituvchi qilib olib qolishadi. Tojiyev bilim yurtini tamomlagach Toshkent bilim yurtida, M.Qori-Yoqubov nomidagi o'zbek davlat filarmoniyasida, Bastakorlar uyushmasida va Toshkent davlat konservatoriyasida samarali faoliyat ko'rsatdi.

Mirsodiq Tojiyev ko'plab turli janrlarda asarlar yaratgan, XX asrning 60-yillarda kamonli sozlar kvarteti uchun asar, fortepiano va orkestr uchun "Konsert" (1964), "Bo'rilar" (1966, romans-balada M.Jalil matni asosida) skripka, vilionchel va fortepiano uchun trio (1967), "Shoir sevgisi" (1968, simfonik poema, Uyg'un va I.Sultonning "Alisher Navoiy "dramasi asosida ), "Oygul va Baxtiyor" simfonik balet ( 1970, H.Olimjonning shu nomli poemasi asosida), 19 ta simfoniya va chang cholg'usi uchun 8ta " Sharqona rapsodiya"lar va boshqa ko'plab asarlar yaratgan.

Kompozitor juda ko'p iqtidorli nazariyachilar va kompozitorlar yetishib chiqishida o'z salmoqli hissasini qo'shadi. Nafaqat u ustoz balki o'z ustida tinmay mehnat qilib, o'zbek musiqasining simfonik janriga juda katta hissasini qo'shadi. Tojiyev o'zbek milliy musiqa va maqom yo'lidagi qo'shiq-kuylarni o'zining simfonik asarlarida juda muvaffaqiyatli uyg'unlashtira olgan kompozitordir. Ya'ni har bir ijodkor o'zining oldidagi maqsadi, o'z an'analari va musiqalarini saqlay olish hamda, keyingi avlodga qoldirish maqsadi bo'lsa, bunday ijodkorona yondashuv Tojiyevda juda ham muvaffaqiyatli kechgan. Uning diplom ishi sifatida yozgan 2-Simfoniya-baleti ham aynan ijodkorning an'analarga tayangan holda doim yangilikka intilganligi, san'atda o'z o'rnini topishga xarakter qilganini yaqqol sezishimiz mumkin.

Tojiyevning asarlarida milliylik urfi yaqqol namoyon bo'ladi. U doim milliylikga urg'u berib, uni yevropa simfonik andozalariga tushirib, simfonik musiqaga o'zbek milliy musiqalarini olib kirgan kompozitordir. O'zbek musiqa tarixiga ham "maqom"

simfoniyaachiligining asoschisi sifatida kirgan. Tojiyev milliy ranglar uyg'unligiga emas, an'anaviy musiqaning chuqur hislatlariga yetishishga intilgan.

Tojiyev nafaqat simfonik asarlar muallifi balki chog'u musiqasida ham ko'p asarlar yaratgan. Kompozitor yakkaxon uchun yaratmoqchi bo'lgan cholg'uning ijro imkoniyatlari, jarangdor tovush qatorlarini avval yaxshilab o'rganib, keyin cholg'uni yanada yorqinroq namoyon etishda xizmat qiluvchi ohanglarda kuy yaratgan. Jumladan chang cholg'usi uchun (8 qismdan iborat) yaratgan "Sharqona Raqs" asarlarida ham nafaqat milliylikni ko'ramiz, balki har bitta raqs takrorlanmas ritm va xarakterda muvaffaqiyatli yaratilgan. "Sharqona raqs" №1 asariga nazar soladigan bo'lsak, asar oddiy uch qismli shaklda yozilgan bo'lib, kompozitor bu asarida chang cholg'usining ijro imkoniyatlari va eng jarangdor tovush qatorlaridan unumli foydalangan holda, asarni chang ijrosida "lya" firigiy ladida kichik "kadensiya" bilan boshlab beradi. Avvalroq kuy vazminroq tempda kuychan musiqiy fikr bilan boshlanadi. 10-taktdan boshlab asosiy kuy oktava ko'rinishida salmoqli yangraydi, ya'ni cholg'uning kuychan tabiatini ijro imkoniyatlar orqali ko'rsata olgan. Oktavali kuy qatoridan so'ng ritmik ko'rinishda namoyon bo'lib, ijrochi maxoratini ko'rsata olishiga imkoniyat bergan holda, sekin-asta tezlashib qat'iyatli xarakterni namoyon etadigan ohanglar bilan yakunlanadi. So'ngra 1-qismga 7 taktli bog'lovchi qism bilan kadensiya to'liq yakunlanib fortepiano ijrosida ritmik fakturada boshlanuvchi bog'lovchi qismga o'tiladi. Kompozitor 1-qismda kuyni tez suratda usulga solib milliy ohanglarni muvaffaqiyatli namoyon etgan. Asar lya major tovush qatorida yozilgan. Keyingi 2-qism esa lya minorda yozilgan bo'lib, ritmik ko'rinishi saqlangan. Asar surati meno mossoda yozilgan. Kompozitor bir xil ko'rinishdagi usuldan turli tezlikdagi temp orqali kuyda chuqur hissiyotlarni namoyon eta olgan. 2-qismdan 3-qismga bog'lovchi kadensiyasimon partiya bilan 3-qismga o'tiladi. 3-qism asosiy mavzuning variatsiya shaklida yozilgan bo'lib, kompozitor cholg'u imkoniyatini o'rinli ko'rsata olgan. Ijrochi bu asar orqali nafaqat milliy koloritni usulda o'zlashtiradi, balki ijro maxorati ortishida, ijro imkoniyatlarini namoyon etishda xizmat qiladi. Bu asar shu qadar muvaffaqiyatli, ijrochi imkoniyati va maxoratini ko'rsata olgani uchun ham ko'p yillar davomida Respublika ko'rik tanlovlarida shartli asar sifatida ijro etib kelingan.

Tojiyevning Respublika ko'rik tanlovlarida shartli asar sifatida yana bir asari ijro etib kelingan. Bu "Sharqona raqs №4" asari bo'lib, kuyning boshi kichik improvizatsiyasimon qismdan iborat bo'lib, fortepiano va chang partiyalari usullari yozuvda to'g'ri kelmaydigandek ko'rinsada, lekin aynan mana shu ko'rinish juda katta obraz yarata olgan. Kompozitor juda mohirlik bilan chang cholg'usiga yangicha talqin, yangicha ijro usullarini yarata olgan. Kompozitor o'z musiqalarida aynan shunday obraz yarata olganligi uchun ham boshqa kompozitorlar orasida ajralib turadi.

Kirish qismida kichik improvizatsiyadan keyin asosiy kuy mavzusi boshlanib, kompozitorning nechog'lik professional va cholg'u ijrochiligida yangi ohang - kutilgan yangi kuy aks ettirilgan. Asosiy kuy changda pizzicato ijro usulida ijro qilinishi tinglovchiga kuyni yanada ifodali yetkazadi. Aynan kompozitorning cholg'u ijro imkoniyatlari va ijro usullaridan kerakli joyda kerakli foydalana olgan. Bu asosiy kuyda huddi sokin, vazminlik bilan ketayotgan tuyalar va sukunat obrazini tasavur qilishingiz mumkin. Aynan avval chang so'ngra fortepiano ketma-ketlikda savol-javob singari yozilgan kuy yo'li bilan kompozitor obrazni yaqqol ko'rsata olgan. Chang va fortepiano kuy yo'li nafaqat gorizantal balki vertikal tarzda muvaffaqiyatli yozilgan. Raqsning 2-qismida kuy tez sur'atda bo'lib, cholg'uning aynan yorqin jarang etuvchi

bosqichdagi notalari yozilgan bo'lib, sahroda birdan kelgan chang-to'zon, bo'ron aks etuvchi obrazli kuy yo'lida yaratilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu raqs juda ham muvaffaqiyatli yaratilgan bo'lib, u ijrochini maxoratini o'stiribgina qolmay, uni yangi yuqori ijro bosqichiga chiqishida katta hissa qo'shuvchi bo'lib xizmat qiladi. 3-qism esa kichik imrovizatsiya va asosiy kuy, ya'ni chang-to'zon, bo'ronlar ketib sokinlikdagi obraz bilan yakunlanadi.

M.Tojiyevning chang uchun yaratgan har bitta "Sharqona raqs"lari takrorlanmas kuy va ritmda yaratilgan. Har bir raqsda albatta obraz juda muvaffaqiyatli namoyon bo'lgan. Tojiyevning asari nafaqat yurtimizda e'tirof etilgan, balki xalqaro ko'rik tanlovlarda ham e'tirof etilgan. 2007-yil Rossiyaning Ulan-Ude shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro ko'rik tanlovda M.Tojiyevning "Sharqona raqs №4" asarini ijro etganimda hay'at a'zolariga aynan mana shu asar juda ham ma'qul bo'lgani, hamda, ko'rik tanlov yakunida yana ijro etish taklifi berilgan edi. 2007-yil Ulan-Ude shaxridagi Xalqaro ko'rik tanlov yopilish marosimida M.Tojiyevning "Sharqona raqs №4" asari muvaffaqiyatli ijro etilgan va katta e'tirofga sazovor bo'lgan.

Xulosa o'rnida e'tirof etish lozimki, kompozitor Mirsodiq Tojiyevning musiqiy merosi o'zbek san'ati ijrochiligi, kompozitorlik ijodiyoti, musiqashunosligiga ulkan hissa qo'shgan bo'lib, unda muallifning simfonik asarlari, kamer asarlari dastur sifatida xizmar qiladi. Chang uchun yaratilgan asarlari esa yosh ijrochilarning mahoratini shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. G'ofurbekov T.B. Musiqa – mening Borlig'im 75. -Toshkent: Navro'z, 2015. -60-63 betlar.
2. Янов-Яновская Н.С. Узбекская симфоническая музыка. -Ташкент: 1979. -218 с.
3. Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1974. -170-174 betlar.
4. Tojiyev M. Sharqona raqs №4. partitura. 1989. - 52 b.
5. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. 2015. 408 b.
6. Yunusov R. Mirsodiq Tojiyev. Monografiya. 2022. 228 b.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/10 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).